



Kino Matnlarida Arxiaklashgan Birliklar

Abduqayumova Shaxnoza Abdufattoyevna

Andijon Pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Abduqayumova Kamola Abdufattoyevna

Jalaquduq tumani 17-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Usbu maqolada kinolardagi eskirgan yoki nutqdan chiqib ketgan so‘zlar, iboralarning ma’nolari, lug‘aviy tahlili, leksik-semantik xususiyatlari hamda ishlatilish o‘rinlarining tahliliy jamlanmasi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Leksik tahlil, eskirgan so‘zlar, tilshunoslik, arxaizmlar, kinofilmlarda arxaizmlar, tarixiy so‘zlar, “Yulduzli tunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Shumbola”.

Archaic Units In Film Texts

Abduqayumova Shakhnoza Abdufattoyevna

Teacher of Andijan Pedagogical Institute

Abduqayumova Kamola Abdufattoyevna

Teacher of the 17th school of Jalakuduq district

Abstract: In this article, opinions are expressed about the meanings, lexical analysis, lexical-semantic features and the analytical summary of the places of use of obsolete or out-of-speech words and phrases in movies.


Key words: lexical analysis, obsolete words, linguistics, archaisms, archaisms in movies, historical words, “Yulduzli tunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Shumbola”.

KIRISH

Kino tilining ta’sir kuchi badiiy asar tilidan bir necha marta ortiqdir, kinoni tomosha qilish yosh tanlamaydi. Hattoki, savodi chiqmagan yosh bolajonlar ham o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqib ibrat oladilar. Agar kino tilida yot unsurlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, tarbiya ham shunchalik salbiy tomonga og‘adi. Ushbu jihatga e’tiborsizlik bilan qarash tijorat kinolari, shuningdek, tajovuzkor, buzg‘unchi kinolarning g‘alabasi bilan tugashiga asos bo‘ladi.¹

Lug‘atlardagi eskirgan so‘zlar - arxaizmlar va istorizmlardan oddiy so‘zlashuv vaqtida foydalanilmasligi mumkin. Biroq ular tarixiy asarlarda tarixiylik koloritini berish uchun ishlatiladi. Aytaylik, asarda o‘n beshinchi asr voqealarini tarvirlayotgan ijodkor, albatta, o‘sha davrda foydalanilgan so‘z va iboralarni o‘z asarida qo‘llaydi. Ya’ni o‘sha davr koloritini yaratish uchun, albatta ana shu davrdagi narsa-buyumlar, tushunchalar, kiyimlar yoki hodisalar

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Arxaizm>.



qo'l keladi. Shunday ekan, eskirgan so'zlarning ham tilimizdagi o'rni juda beqiyosdir.² Bu so'zlar zamonaviy nutqda kamdan-kam ishlataladi yoki faqat o'tgan asrlar yozuvchilarining adabiy asarlarida uchraydi. Eskirgan so'zlar zamonaviy rus tilining passiv so'z boyligi deb tasniflanadi. Arxaizmlar, odatda, zamonaviy nutqda sinonimlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Eskirgan so'zlar yoki arxaizmlarni sodda qilib aytadigan bo'lsak, bizning zamonaviy hayotimizdan yo'qolib ketmagan, unda mavjud bo'lishni davom ettiradigan, lekin boshqa nom bilan ataladigan narsalar, hodisalar va tushunchalar hisoblanadi. Ya'ni, ular zamonaviy so'zlar bilan o'rin almashadi. Hozirgi kunda juda ko'p arxaizm so'lar va so'z birikmalari mavjud va ular lug'atlarda berib boriladi. Arxaizmlardan kino san'atida juda keng va o'rinli foydalanib kelinadi. Ayniqsa, o'tkan uzoq asrlarni tasvirlashda keng qo'llaniladi. Arxaizmlar milliy hamda madaniy an'analarimizni qayta gavdalantirishda, diniy bayramlarimini, eski udumlarimizni, oziq-ovqat, o'chov birliklarini va tarixiy hayotimizni tasvirlashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Eskirgan so'zlarning turlaridan biri bu tarixizm, ya'ni endi mavjud bo'lmagan tushunchalarni belgilashdir. Biror kishining kasbi yoki ijtimoiy mavqeini belgilash orasida, masalan, bir kishi, profos, chivin yasovchi, oziq-ovqat ustasi, pochtachi, kulolchilik so'zları orasida juda ko'p o'xshash so'zlar bor. Tarixiyliklarning katta qismi ishlatilmay qolgan moddiy madaniyat obyektlarini – otliq, tramvay, mash'ala singari so'zлarni ifodalaydi. Bu turkumga mansub ba'zi so'zlarning ma'nosi, ularni osonlikcha taniy oladigan, lekin tarixiylikning faol lug'atida bo'lmagan, ona tilida so'zlashuvchilarining bir qismiga ma'lum. Bunday so'zlar hozirgi adabiy tildagidek ishlatilmasa ham, ma'lum bir shevalarda hozirgi kunda ham ishlatalishi mumkin. Arxaizmlar - bu tilimizda mavjud bo'lgan tushunchalarni bo'yodkorlik asosida yetkizib beradi, endi arxaizmlar o'mida boshqa so'zlardan foydalanilmoqda. Bu so'zlarning ba'zi birlariga duch kelganlar umuman bilmasliklari mumkin, shuning uchun ular passiv so'z boyligidan astasekin chiqib ketishadi. Ba'zi arxaizmlar zamonaviy o'zbek tilida frazeologizmlar sifatida va yoki ularning tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolishi mumkin. So'zlar faol ishlatalishdan chiqib ketadi va sekin-astalik bilan passiv lug'atga kira boshlaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli, huddi boshqa narsalar o'z o'rnini yangisiga bo'shatib bergandek, so'zlar ham o'z maqomini o'zgartiradi. Lekin, bevosita tilshunoslikda arxaizmlarning paydo bo'lishida lingvistik omillarning roli ham katta. Muhim nuqta - bu so'zning qolganlari bilan bog'lanish soni. Tabiatdagi turli xil, boy, tizimli birikmalarga ega bo'lgan so'z passiv lug'atga kirishi ancha sekin bo'ladi.

Eskirgan so'zlar qadimiy bo'lishi shart emas. So'nggi paytlarda so'zlar tezda ishlatilmay qolishi mumkin. Sababi, uning o'rnini jamiyatdagi rivojlanishlar tufayli yangisi egallaydi.

NATIJALAR

Arxaizmlar eskirish xususiyatiga qarab bir qancha toifalarga bo'linadi. Asosiy variant - to'g'ri leksik arxaizmlar, bunday so'zlar butunlay eskirgan. Leksik-semantik arxaizm bir yoki bir nechta ma'nolarda eskirgan polisemantik so'zlardir. Leksik-fonetik arxaizmlarda so'zning

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.



imlosi va talaffuzi o'zgargan, lekin ma'no saqlanib qolgan. Arxaizmlarning leksik-derivativ turi bu shaklni eskirgan prefikslar yoki qo'shimchalarni o'z ichiga oladi.

Kinofilmlarda ham arxaizmlarga, eskirgan so'zlarga juda ko'p duch kelamiz. Yuqorida tahlil qilgan filmlarimiz "Kelinlar qo'zg'aloni", "Shum bola", "Mahallada duv-duv gap" kinofilmlari tilidagi arxaik so'zlardan misollar keltiramiz. G'afur G'ulomning "Shum bola" kinosida ishlatilgan arxaik so'zlarning tahlili:

Toshbonu – "Shum bola"(Qoravoy)ning onasini ismi. Hozirgi kunda bu simdan deyarli foydalanimaydi. Ismning ma'nosi chiroyli joni toshdek qattiq, yashaovchi qiz degani.

Taqsir – amaldorlar va mullalarga hurmat bilan murojaat qilish shakli. Ma'nosi kamaytirish, qisqartirish, kamchilik, sustkashlik, beparvolik degani.

Madrasa – o'tkan asrlarimizdagi oliy o'quv dargohi. Diniy ilmlar qatorida notiqlik, matematika, mantiq, falasafa, huquqshunoslik, kalligrafiya, falsafa, musiqa, astronomiya, tibbiyat, geografiya va yana shunga o'xshash bir qator yo'naliishlar bo'yicha bilim berilgan. Arab tilidan olingan darslar o'tiladigan joy nomi.

Mudarris – bu so'z arab tilidan olingan, madrasada dars beruvchi o'qituvchi ma'nolarini beradi.

Mullavachcha – ma'nosi madrasa talabasi, mullalarning, ulamolarning bolasi, farzandi tushunchasini beradi.

Menga bu ishlar chikoya taqsir – bu gapda chikoya so'zi oson, hech narsa emas degan ma'nolarda keladi.

Mulla – O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlariida Madrasa ta'limini olgan shaxs.

To'ram - zodagon oila a'zosi, rasmiyatparast, byurokratlarga nisbatan ham ushbu so'z ishlatilgan.

Bachchag'ar – nafrat, g'azab bilan qattiq koyishni ifodalaydi. Boy tomonida Qoravoya nisbatan aytilgan, "Haaa, bachchag'ar yergina yutsin seni" deya.

Qandil pishibdi – bu yerdagi so'z birikmasidagi qandil so'zi o'rik nomi ma'nosida keladi.

Chuvalachi – bu so'z toponim ya'ni joy nomi ma'nosini beradi.

Qirqinchi ponar – "Fonar" ya'ni yorituvchi qismi shar, quticha, naycha va boshqa shakllarda ishlangan shaffof, shisha materialdan ishlangan chiroq.

Rapida – tandirga non yopish uchun ishlatiladigan, matodan tikilgan qalin qo'lqop.

Mirshab – O'rta Osiyo xonliklarida va o'tkan asrlarda tungi shahar soqchisi va yoki ularning boshlig'i ma'nolarini beradi.

Aysh – huzur-halovat, rohat-farog'at, nash'u namo, kayf-safo, ishrat ma'nolarini beradi.

Oqsoqol – oldingi davrlarda bir yoki bir necha qishloq, mahallalarga boshliq bo'lgan amaldor.

Kovush – o'rta asrlarda ayollar oyoq kiyimi, maxsi tagidan kiyadigan kiyim.

"O'tkan kunlar" kinosidan tahlillar:

Beklarbegi – xonliklar davridagi yuqori ma'muriy lavozim va unvon. Viloyat va katta shaharlar hokimi.

Shikoyatnomma – xonliklar davridagi yozma shikoyat.

Quridor – Qo'qon xonligini davrida soliqlaran to'plangan pullarni yig'uvchi, ularni saqlovchi v axon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori.

Xon – turkiy va mo'g'ul xalqlari hukumdorlari unvoni.



Yuzboshi – Osiyo xonliklari davrida yuzta otliq askarga qo‘mondonlik qiluvchi harbiy boshliq yoki qishloq, mahallalarning oqsoqoli.

Qo‘rg‘onbegi – qal’ani, qo‘rg‘onni himoya qiluvchu soqchilarning boshlig‘i.

O‘rda – turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida hukumdor, xon qarorgohi, qal’a. “Yusufbek hoji boshliq yer-u ko‘kka sig‘magan muzaffar xalq o‘rda tevaragini qurshab oldi”.

Qamal – shahar, qal’a, armiya va shu kabilarni taslim bo‘lishga majbur etish maqsadida dushman qo‘shinlarini qurshab olish va shunday holatda saqlash, qurshov.

Kimxob to‘n – o‘rishi ipak, arqog‘i zardan to‘qilgan mato; shu matodan tayyorlangan kiyim.

Jallod – O‘rta Osiyo xonliklarida o‘lim jasosiga hukm qilinganlarni boshini oluvchi, hukni ijro qiluvchi shaxs.

Paranji – musulmon ayollar begona ayollarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshiga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘nga o‘xhash, soxta yoping‘ich.

Chachvon – paranjini yuz qismini to‘sish uchun ot yolidan tayyorlangan ayollar kiyimiga yordamchi.

Lashkar - O‘rta asrlardagi qo‘shin, armiya. O‘zining muntazam armiyasi bo‘lmagan xon va podshohlar urush oldidan o‘ziga qaram viloyatlardan askar to‘plagan.

Chopar – otliq xabarchi. Sharq xalqlarida o‘tmishda, jumladan O‘rta Osiyoda davlat ahamiyatiga molik, shoshilinch xabarlarni yetkazuvchi otliq shaxs.

Kishan – mahbuslarning yoki biror ayb yuzasida hibsga olingan shaxslarning erkin harakatlana olmasliklari uchun qo‘llariga, bo‘yinlariga va yoki oyoqlariga solinadigan temirdan yasalgan bo‘g‘ov.

Qul – qadimgi davrlarda xususiy mol-mulk singari olib-sotiladigan, butunlay xo‘jayinga qaram bo‘lgan, hech qanday haq-huquqqa ega bo‘lmagan xizmatkor.

Andi – kelib chiqishi boshqa joydan kelib, malum bir makonga o‘rnashib qolgan, kelgindi shaxs.

Chikora – bu so‘z fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, nima ish qilasan?, kasb-koring nima degan ma’nolarni anglatadi. Etimologik lug‘atlarda esa zaruriyati yo‘q, keragi yo‘q degan ma’nolarni anglatadi.

“*Mehrobdan chayon*” kinofilmidan qilingan tahlillar:

Bo‘zchi – bo‘z to‘quvchi kosib. “Safar bo‘zchi ko‘zida yoshi bilan Anvarni tabrik qildi”

Haytovur – har qalay, nima bo‘lsa ham, qanday bo‘lsa ham ma’nolarini anglatadi.


Mirzaboshi – o‘zbek xonliklarida, asosan Qo‘qon xonligida mirzaxona boshlig‘i. “Shahardagi birorta mudarris domlani mirzaboshi ko‘tarsalar yo‘q dermi?”

Mulla – O‘rta Osiyo, Sharq mamlakatlarida madrasasi ta’limini olgan shaxs. “Madrasani tugatgach, oshiqlar yor vasliga oshiqqandek, mulla Abdurahmon ham o‘z shahriga yelib-yugurib yetdi”.

Zang‘ari – O‘rta asrlarda yomon so‘z ma’nosida ishlatilgan yana buzuq yo‘lga kirgan, suyug‘oyoq ayol yoxud xotini buzuq kimsaga nisbatan ishlatilgan. “Gap bilan bo‘lib zang‘ar kayf ham tarqab ketdi, qani, quy-chi, bir-ikkini”.

Zakotchi – zakot yig‘uvchi.

Imom – O‘rta asrlarda islom peshvolariga nisbatan unvon sifatida berilgan nom yana namozda jamoatning oldida turib, namozni boshqaruvchi shaxsga nisbatan ham ushbu so‘z ishlatiadi.



Mirza – mirzoda, amirzoda, amir o‘g‘li ma’nolarini anglatadi. “Mirzo Anvar noma va azrizalarning ba’zilarini birinchi xonada oldilariga davot, qalam qo‘yib, daftar usti-da o‘tirgan mirzo, muftilarga havola qilar edi.”

Domulla – madrasani bitirgan mulla kishi, diniy maktab muallimi. “Xon mulla Niyoz domullaga qaradi. Domulla Niyoz Anvar tarafidan duoga qo‘l ochdi”

Rahnamo – yo‘l ko‘rsatuvchi, boshchilik qiluvchi, rahbar.

Xoqon – qadimgi turkiy xalqlar va mo‘g‘ullar hukumatida yirik davlat boshliqlarining eng oliv unvoni va shu unvonni olgan shaxs.

Munshiy – O‘rta Osiyo davlatlarida saroydagi yozuv ishlarini olib boradigan kotib. “Anvar devonxona sahniga yetganda, ichkaridagi kattadan kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilgali o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar.”

Amir – Ba’zi musulmon mamlakatlarida va Buxoroda xonlik, podshohlik unvonini olgan hamda shu unvon egasi.

Amrima’ruf – savob ishlarga, bajarilishi kerak bo‘lgan barcha islomiy amallarga da’vat etish. Shunday ishga bag‘ishlangan marosim, maraca.

Qiblagoh – aslida bu so‘zning ma’nosi qibla tomon, qibla ma’nolarini beradi. Ko‘chma ma’noda esa o‘ta hurmatga loyiq kishi (masalan, ota, ona, ustoz)ga murojaat qilish shakli.

Xazinachi – Hukumdar va boshliqlarning xazinasini va boshqa moddiy boyliklarini saqlovchi, boshqaruvchi shaxs, xazina boshlig‘i. “Xazinabonlar sipohlar orqasidan ikki ot ni yetaklashib, hudaychi yoniga yetdilar.”

Aqcha – pul.

Devon – o‘tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliv davlat amaldorining majlisi. “Kunduzlari O‘rda devonini boshqarish, ertalab va kechqurun o‘z uyida xususiy kishilarni qabul qilish, albatta, Anvar uchun og‘ir edi.”

Xaram – taqiqlangan yoki muqaddas joy ma’nolarini bildiradi. O‘rta asrlarda podshohlarning xotinlari yashaydigan saroy yoki uyning yopiq, qo‘riqlanadigan turar joyi.

Kaniz – tutqun ayol, cho‘ri ma’nolarida keladi. Ba’zan esa xon, amir va boshqa hukumdarlar saroyida xizmat qiladigan ayol ma’nosini bildiradi. “Shoir xaramdagи kanizlardan biri bilan aloqa bog‘lagan ekan.”


Hazrat – podshoh, xon, bek kabi oliv darajali mansabdorlarni ulug‘lash uchun janob oliylari ma’nosida ishlatiladi. “Qamchisi ko‘kda tovlanib, xanjari zahar sochgan xon hazratning buyrug‘iga kim ham qarshi bora oladi.”

Tanob – yer o‘lchash, uzunlik o‘lchash, chiziq tortishda va shu kabilrda ishlatiladigan uzun chilvir, reja ip. O‘rta Osiyo xonliklarida tomonlari oltmis gazdan iborat bo‘lgan maydonga teng yuza (yer) o‘lchov birligi.

Imomat – Imom ishi, qiladigan mashg‘uloti, imomligi ma’nosini beradi. “Solih mahdum og‘irroq kasbni uhda qilolmas, imomatga bo‘lsa, soqoli chiqmagandan yaramas edi.”

Sipoh – podshoh, xon, amir saroyida uzoq hizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor. Yana jangchi, askar ma’nolarida ham keladi.

Kinolarda arxaizmlarning ishlatilishi kino tili bo‘yoqdorligini oshiradi. Arxaizmlarga aslida, tarixiylikning kichik guruhi deya qarashimiz mumkin, ular eskirgan so‘zlarni ham o‘z ichiga oladi. Ammo ularning asosiy farqi shundaki, ularning o‘rnini sinonimlar egallashi mumkin,



ular bugungi kunda keng tarqalgan va ishlatiladigan so‘zlar.

Bularga zamonaviy dunyoda o‘z faoliyatini to‘xtatgan, lekin oldin sodir bo‘lgan maxsus narsalarni, pozitsiyalarni, hodisalarni bildiruvchi so‘zlar kiradi. Ularning zamonaviy tilda sinonimlari yo‘q va siz ularning ma’nosini faqat izohli lug‘atdan bilib olishingiz mumkin. Asosan, bunday eskirgan so‘zlar qadim zamonlarning kundalik hayoti, madaniyati, iqtisodiyoti, ierarxiyasi, harbiy va siyosiy munosabatlarining tavsifini bildiradi.

Eng muhimi, eskirgan tarixiylik so‘zlari harbiy mavzular, shuningdek, uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyim-kechak bilan bog‘liq ismlar orasida uchraydi.

Arxaizm va uning sinonimi o‘rtasida bir nechta asosiy farqlar mavjud. Ular farq qilishi mumkin: a) leksik ma’no; b) grammatik dizayn.

Arxaizmni jumlada to‘g‘ri ishlatish va chalkashlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun izohli lug‘at yoki eskirgan so‘zlar lug‘atidan foydalanish lozim.

Arxaizmlar so‘zlar o‘ziga xos tarixiylikni mukammal tarzda ifodalaydi, badiiy matnni rang-barang va yorqin qiladi. Lekin ularni to‘g‘ri ishlatish uchun har doim to‘g‘ri va tushunarli lug‘atdan tekshirib keyin foydalanish kerak.

XULOSA VA MUNOZARA


O‘zbek kinofilmlari (“Kelinlar qo‘zg‘aloni”, “Mahallada duv-duv gap”, “Shum bola”, “Mehrobdan chayon”)dan olingan misollarda ijodkor sodda gaplardan, to‘liqsiz, bir bosh bo‘lakli gaplardan kiritmalardan, zarur o‘rinlarda sheva elementlaridan unumli foydalana olgani sababli o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga erishgan. Asardagi so‘zlar tili ijtimoiy jihatdan kinoqissaga moslashganini ko‘rish mumkin.

Kino nutqining boshqa polimodal nutqlardan farqi shundaki, unda kino nutqini o‘rganishda ko‘pincha tahlil qilinadigan drama matnlaridan farqi dinamik jihat ishtirok etishida. Shuningdek, ko‘plab ekstralingvistik omillar, xususan, kino ijodkorlarining badiiy uslubi, yaratilish vaqtisi, kinoning xususiyatlari (individual tarzda) aktyorlar va boshqalar hisobga olinadi. Kino nutqi drama bilan aniq o‘xshashlikka ega, ammo muhim farqli jihatlaini ham ta’kidlash lozim. Dramatik asar ma’lum bir bosqich mujassamligidan va aniq aktyorlar, kino nutqidan, konkretlashtirilgan sahna harakati, aktyorlar o‘yinlari va ular talaffuz qilish matnining birligidan tashkil topadi. Xulosa qilish mumkin, kino nutqini o‘rganish muayyan sharoitlarda og‘zaki nutqni o‘rganishga yaqin ekanligini, bu lingvistik tadqiqotlar ushbu sohaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Agar barqaror vaziyatda madaniyatning roli birinchi navbatda davrning asosiy tajribalarining kristallanishida namoyon bo‘lsa, unda tranzitiv vaziyatlarda madaniyat kelajakni shakllantirishga yordam beradigan muhim prognostik omilga aylanadi. Shuning uchun madaniyat asarlari idealdir. Kundalik hayot psixologiyasi uchun ham, shaxsiy va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikning murakkab aloqasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun ham material va tahlillar kerak.

Ijodkorlikda obyektiv va subyektiv makon va vaqtning eng qavariq o‘zgarishlari, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikning o‘zaro bog‘liqligi namoyon bo‘ladi.

Tomoshabinlarning ayrim guruhlarida ma’lumot olishning va bo‘sish vaqtini o‘tkazishning yangicha usullari allaqachon paydo bo‘la boshladи. Shu sababli kino jiddiy ravishda siqib chiqarilmogda. Shunung uchun kino kelajagi ham san’at sifatida, ham madaniy hordiq



chiqarish usuli sifatidagi masalasi ochiqligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqyeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.
3. Marten M. Kino tili [Язык кино]. M.: San'at [Искусство], 2019.
4. Muhammadiyev R. Publitsistika janrlari. O'zbekiston n., T.: 1965.
5. Shomaqsudov A. O'zbek stilistikasi. T., 1974.
6. Mirsoatova M. Malik qayum ijodi va kino publitsistikasidagi mahorat masalalari. F.f.d. diss., 2009.
7. Mashrapova T.M. Publitsistik asarning mazmunu va shakl muammolari. F.f.d. diss.avtoref., 2014.
8. Xudoyqulov M. O'zbek hajviy publitsistikasining shakllanishi va rivojlanishi tamoyillari. XX asr oxiri. F.f.d. diss., 2001.
9. O'zME. Birinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
11. [En.m.wikipedia.org](https://en.m.wikipedia.org).
12. www.ziyouz.com.
13. Academ.platforma.tr.